

QIRG'IZISTON MILLIY TARIX KONSEPSIYASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Axmedov Jalol Tursunmuratovich,

Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi assistent

jalolaxmedov2023@gmail.com

Narzullayev Dilshod Yusuf o'g'li

104-24TVM guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixida bugungi qirg'izlar yashaydigan hudud o'ziga xos o'rin egallashi xususida so'z boradi. Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi Qirg'iziston hududiga to'g'ri keladi. SHu nuqtai nazardan Qirg'iziston milliy tarix konsepsiyasi va uning o'ziga xos jihatlarini o'rghanish muhim jarayonlardan biridir.

Kalit so'zlar: millat, elat, etnos, urug', Markaziy Osiyo, Dashti Qichoq, Manas, Xan-shu, SHi-ji, gyangun, Oltoy.

Qirg'iziston o'z mustaqilligiga erishgach, boshqa qo'shni respublikalarida bo'lgani kabi bu erda ham milliy tarix va mintaqqa xalqlari tarixi bo'yicha turlicha yondashuvlar yuzaga kela boshladi. Bundan ko'zlangan maqsad qirg'iz xalqi tarixini yangidan yaratish hamda mintaqqa tarixiga nisbatan qirg'izistonlik tarixchilarning munosabati bo'ldi. CHunki sovet davrida yozilgan va maktab darsligi sifatida o'qilib kelingan tarix darsliklarida va ilmiy nashrlarda O'rta Osiyoning boshqa xalqlari tarixi qanday yoritilgan bo'lsa, shunga o'xshash holat qirg'iz xalqi tarixi uchun ham xos bo'lib, o'tgan etmish yillik davr ichida biryoqlamali yondashuv ustuvorlik qilib kelgan edi [1.1]. Buni yaxshi anglagan qirg'iz ziyorilar, ayniqsa, qirg'izistonlik tarixchilar jamoasi o'z xalqining haqqoniy tarixini yozishga dolzarb masala sifatida qaradilar. Qirg'iziston xalqining milliy birligini saqlash va milliy davlatchilikni rivojlantirish uchun 1990-yillargacha yozib kelingan va xalqning ongiga singdirilgan sovetcha yondashuvni yo'qotish va uning o'rniga haqqoniy tarixni taqdim qilish uchun ham qirg'iz jamoatchiligi, ham hukumat bu masalaga jiddiy ravishda e'tibor qarata boshladilar. Buni Qirg'izistonning sobiq prezidenti A. Akaev "Kirgizskaya gosudarstvennost

i narodnyiy epos "Manas" (Bishkek, 2003)" nomli kitobida ko'tarib chiqilgan masalalar orqali ham kuzatish mumkin [1.2]. A. Akaev qirg'izistonlik etakchi tarixchilar bilan maslahatlashgan holda qirg'iz davlatchiligi 2300 yil ilgari tashkil

topgan degan g‘oyani ilgari surdi. Bunda miloddan oldingi so‘nggi mingyillikning oxirgi choragiga tegishli “Xan-shu” (Xan sulolasi tarixi), “SHi-ji” (Tarixiy xotiralar) nomli qadimgi xitoy manbalarida “gyan-gun” ko‘rinishida tilga olingan ko‘chmanchi elat nomining aslida “qirg‘ir” (qirg‘iz) bo‘lgani to‘g‘risida jahon tarixshunosligida keng taqalgan qarash turtki bo‘ldi [1.3]. Qirg‘izistonlik olimlar qadimgi qirg‘iz xalqi ajdodlarining Janubiy Sibirda, aniqrog‘i, Enisey daryosi bo‘ylarida yashaganliklari, qadimgi “gyangun” elati yashagan hudud ham aynan shu hududlarga to‘g‘ri kelishi kabi dalillarga tayandilar.

Bir qaraganda qirg‘izistonlik tarixchilarning bu qarashi to‘g‘ridek ko‘rinadi. Biroq ushbu dalilning talqini va aholi etqazilishi masalasida qirg‘iz olimlarining yondashuvi bilan to‘laqonli kelishib bo‘lmaydi. Buni ushbu masalada o‘zbekistonlik bir qator tarixchilar tomonidan bildirilgan munosabatlar ham ko‘rsatib turibdi. Jumladan, E.Rtveladze,

A. Sagdullaev, SH. Kamoliddin kabi o‘zbekistonlik etakchi tarixchilar bu masalada faqatgina xitoy manbalaridagi ma’lumotlarga tayanish o‘zini to‘laqonli oqlamasligini, xitoy manbalaridagi ma’lumotlar unchalik aniq emasligini, shuning uchun agar boshqa manbalardagi ma’lumotlar bilan tasdiqlanmasa, ularning quruq o‘ziga asoslanib bo‘lmasligiga urg‘u berishdi.

Biroq, ushbu tadqiqotchilarning bu kabi qarashlariga ham to‘laqonli qo‘silib bo‘lmaydi. Birinchidan, yuqorida keltirib o‘tilgan qadimgi xitoy manbalaridagi ma’lumotlar anchagina ishonchli bo‘lib, “Xan-shu”, “SHi-ji” kabi asarlar xitoy imperatorlari saroylarida xizmat qilgan ko‘plab tarixchilar jamoasi tomonidan to‘plangan ma’lumotlar yig‘indisi bo‘lgan va ular takror-takror ko‘zdan kechirilgan va tahlil qilingandan keyin kitob holiga keltirilgan. Xitoy imperatorlari saroyida mavjud an’analarga ko‘ra, birorta elchi yoki sayyoh tomonidan berilgan xabarlar asosida saroyda har yili tarixiy ma’lumotlar to‘planib borgan va ularning aniqligi masalasiga ham katta e’tibor qaratilgan.

Qolaversa, qadimgi xitoy manbalaridagi “gyangun”lar bo‘yicha berilgan ma’lumotlarning aniq-tiniq berilgani, turli afsonaviy syujetlardan holi ekan ko‘zga tashlanadi. Ushbu atamani “qirg‘ir” ko‘rinishida tiklash va uni “qirg‘iz” etnonimining eng qadimgi ko‘rinishi deb qaraladiki, “gyangun” atamasining so‘nggi tovushi -n xitoy bo‘limgan qo‘shti xalqlardagi so‘z so‘nggidagi -r ni ifodalagani, shuningdek, oltoy tillari oilasida, ayniqsa, turkiy tillardagi so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi -r undoshining keyinchalik -z ga aylanganidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, gyangun – qirg‘ir – qirg‘iz birligi anchagina oydinlashadi [1.4].

Qirg‘iz etnonimining ancha qadimiyligi birgina bugungi qirg‘iz xalqi uchun emas, butun turkiy xalqlar uchun ham faxrlansa arziydigan tarixiy voqelikdir. CHunki bu atama turkiy xalqlar tiliga xos eng eski atamalardan biridir. Aslida qadimgi qirg‘izlar ko‘plab turkiy xalqlarning etnik shakllanishida qatnashgan ilk turkiy etnik komponentlardan biri bo‘lib, bugungi Sibir xalqlari – xakas, tuva, oltoy-kiji va hokazolar etnogenezida ularning o‘ziga xos ulushi bor. SHuningdek, o‘zbeklaring etnik shakllanishida ham “qirg‘iz” nomli turkiy urug‘ anchagina faol qatnashgani bilinadi. Buni o‘rta asrlarga tegishli “92 bovli o‘zbek urug‘i” ro‘yxatida “qirg‘iz” nomli etnonimning uchrashi, respublikamizning turli viloyatlarda – Qashqadaryo, Samarqand va yana bir qator viloyatlarda Qirg‘iz, Qirg‘iz-saroy, SHaman-qirg‘iz kabi etnotoponimlar uchrashi va ular aholisining o‘zbeklar ekanligi ham tasdiqlaydi.

Qirg‘izlar ham mintaqqa xalqlari singari o‘zlarini ko‘plab turkiy sulolalarni o‘z tarixining bir parchasi deyishga haqlidirlar. O‘z navbatida ular ham o‘zlarining davlatchilik tarixini ancha qadimi deb yozar ekan, qandaydir ma’noda haq bo‘lib chiqishadi. O‘zbek davlatchiligi deyarli uch ming yillik bir tarixga ega deb hisoblab, mintaqqa tarixida yashab o‘tgan sulolalar va ular tomonidan boshqarilgan davlatlarni o‘zbeklarning ajdodlariga tegishli deb bilinganidek, qirg‘izlar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar va tojiklar ham u yoki bu darajada ushbu davlatlarga tarixiy meros sifatida qarashlari o‘z asoslariga ega [1.5].

Aslida bunday yondashuvni Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar uchun ham bildirish mumkin. Masalan, qozoq davlatchiligining ham qadimi emasligi, ular ko‘p yillar davlatsiz yashab, ruslar yoki sho‘rolar hukumati davrida qozoq davlati tashkil topgani haqidagi bo‘lmag‘ur da’volar qo‘sni qozoq xalqini qanchalik bezovta qilayotgani ko‘rinib turibdi. YUqorida aytib o‘tilganidek, qirg‘izlar ham, qozoqlar ham mintaqada yashab o‘tgan davlatlarning meroschilaridir. SHu o‘rinda takrorlab o‘tish kerakki, qadimgi davr va o‘rta asrlarda mintaqada yashab o‘tgan davlatlar mintaqqa xalqlarining barchasi uchun u yoki bu darajada tegishli bo‘lib, ulardan birortasini faqatgina “o‘zbek xalqiniki” yoki “qirg‘iz xalqiniki” deb bo‘lmaydi [1.6].

Umuman olganda, qirg‘iz xalqining o‘zagini qadimgi qirg‘iz qabilalari, Janubiy Sibir va Oltoy hududlaridagi turli turkiy elatlardan tashkil etib, ularning asl vatani qadimda Enisey daryosi havzalariga to‘g‘ri keladi. SHu bilan birga, ularning Markaziy Osiyoning ichki hududlarida, xususan, Tyanshan tog‘lari etaklarida yashay boshlashini o‘rta asrlar bilan bog‘lash xato bo‘ladi. YUqorida rivojlangan o‘rta asrlarga tegishli arab va fors manbalarida qirg‘izlar SHosh va Farg‘ona atroflarida yashaydigan turkiy elatlardan biri sifatida tilga olingani keltirib o‘tildi. Biroq bu holatni e’tiborga olmagan ayrim tadqiqotchilar o‘zlarining biryoqlamali

yondashuvida davom etayotganliklari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, SH. Kamoliddinning yozishicha, X asrga qadar qirg‘izlar Janubiy Sibir va Oltoy tog‘larining yon bag‘rlarida yashaganlar, hozirgi vaqtida Sibirda yashovchi xakaslar bilan qirg‘izlar ilgari bir xalq bo‘lgan, ularning yashash tarzi va madaniyati 2300 yil oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, XX asr boshlarida ham deyarli o‘zgarishsiz shundayligicha saqlangan, qirg‘izlarning an’anaviy hayot tarzi ko‘chmanchilik, xo‘jalik faoliyati esa qadimdan yaqin vaqtargacha har doim chorvachilik va yilqichilik bo‘lgan, ularning eng katta dushmani o‘zga erlardan bostirib kelgan tashqi yovlar emas, balki o‘zining yaqin qo‘snnisi – turk tilida so‘zlashuvchi o‘troq va shahar aholisi bo‘lgan [1.7].

Ushbu tadqiqotchining ayrim qarashlari to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq bu borada bildirilgan fikrlarini to‘laqonli to‘g‘ri deb qabul qilish qiyin. CHunki bugungi turkiy xalqlarning deyarli barchasi bunday yo‘lni, ya’ni ko‘chmanchilikdan o‘troqlika o‘tish, boshqa qardosh qabilalar bilan yovlashish bosqichlarini bosib o‘tgan va bu holatni faqatgina qirg‘izlarda bo‘lgan deb baholash tarixiy ob’ektivlikka to‘g‘ri kelmaydi.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin o‘tgan yillar mobaynida Qirg‘iziston olimlari orasida millatchilik ruhidagi qarashlar avj oldi.. Masalan, O‘. Qarataev turk xalqlari tarixida ma’lum bo‘lgan deyarli barcha qabilalar va urug‘larni qirg‘iz etnonimlari qatoriga kiritgan [1.8]. Ushbu yillarda qirg‘iz tarixchilaridan bir qismining mintaqasi xalqlari tarixi yuzasidan bildirilayotgan fikrlarga ham to‘laqonli qo‘silib bo‘lmaydi. Ayniqsa, SH. Kamoliddin tomonidan tanqid qilingan O‘. Qarataevning ayrim fikrlari anchagina munozaralidir. Qirg‘iz etnonimlarining deyarli barchasini bir orada yig‘ib, ularga ilmiy izohlar berishga intilgan O‘. Qarataevning o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq biryoqlama yondashuvi yaqqol ko‘rinib qolgan. Masalan, u birorta qirg‘iz urug‘ini keltirib, unga izoh berar ekan, bunday urug‘ nomi qardosh turkiy xalqlar orasida ham uchrashini aytib o‘tishiga to‘xtalgani ko‘zga tashlanadi. O‘. Qarataev deyarli barcha turkiy xalqlar bilan bog‘liq etnonimlarni tahlil qilishi diqqatga sazovor, biroq u o‘zbeklar bilan bog‘liq etnonimlarni keltirib o‘tar ekan “o‘zbeklashgan”, “o‘zbek deb aytilib ketgan”, “aslida o‘zbek emas” degan iboralarni qo‘llashini qabul qilib bo‘lmaydi.

Aslida u qozoq, no‘g‘oy, qoraqalpoq, turkman va boshqa turkiy xalqlar orasida ham uchraydigan etnonimlarga to‘xtalganda deyarli bunday yondashuvda bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayrim qirg‘iz olimlarining qirg‘iz xalqi tarixi, aslini olganda, turkiy xalqlar o‘tmishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni bo‘rttirib ko‘rsatish, qirg‘izlarni turkiy xalqlar orasida eng qadimgi va eng buyuk xalq sifatida talqin qilish

kabi yondashuvlarga qo'shilib bo'lmaydi. Qirg'izlar ham Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni boshdan kechirgan, etnogenetida turli turkiy urug'lar faol ishtirok etgan xalqlardan biridir. Keyingi yillarda qirg'izistonlik tarixchilar va ilmiy jamoatchilik o'zlarining tarixi va taqdiri qo'shni xalqlar bilan chambarchas bog'liq ekanini tushunib eta boshladilar. Qirg'iz olimlari orasida mintaqqa tarixiga, tarixiy merosiga umumiyl deb qarash konetsepsiyalari kuchaygani ham buni tasdiqlab turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дробышев Ю.И. Кыргызы в Центральной Азии (IX в.) // Восток (Oriens), 2010, № 6.
2. Акаев А. Киргизская государственность и народный эпос “Манас”. Бишкек, 2003 г.
3. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. –М. - Л.: Изд. АН СССР. – том I. – 1950.
4. Bregel Y. An historical atlas of Central Asia / by Yuri Bregel. p. cm. – (Handbook of Oriental Studies. Section eight. Central Asia ; vol. 9). – Brill, Leiden – Boston, 2003.
5. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI – XVIII вв. Письменные памятники / Б.А. Ахмедов. – Ташкент: Фан, 1985.
6. Ртвеладзе Э.В. О некоторых аспектах новейших исследований истории Центральной Азии // Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Изд. 2-е доп. – Тошкент, Чолпон, 2007.
7. SH.Kamoliddin Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondoshuvarlar. Toshkent: 2019.
8. Qarataev.O'. Qirg'iz etnonimlar so'zligi, Bishkek, 2003 y.
9. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатий» // Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1977.
10. Чороев Т.К. Зарождение Кыргызского Каганата. – Бишкек, Кыргызская Республика: Издательство “Раритет”, 2005.
11. Сагдуллаев А.С. История и миф // Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. Изд. 2-е доп. – Ташкент: Чулпон, 2007.
12. Axmedova, Y. S. (2024). INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 521-524.

13. Axmedova, Y. S., & qizi Mamadiyorova, F. S. (2024). XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 611-614.
14. Sunatullayevna, A. Y. (2024). Issues of Formation and Management of the Innovation Strategy of Higher Education Institutions. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 123-128.
15. Sunatullayevna, A. Y., & Sh, M. F. (2024, February). MOTIVATSIYANING BOSQARUVDAGI AHAMIYATI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 86-90).
16. Axmedova, Y. S., & Shaldarbekova, A. B. (2024). JAMOAGA MOSLASHTIRISH PERSONALNI BOSHQARISHDA BIR OMIL SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 445-447.
17. Axmedova, Y. S., & Akromjon o‘g‘li, N. A. (2024, March). BOSHQARUVDA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI. In *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 7, pp. 12-14).